

YUKSAK MA'NAVIYATLI SHAXSNI TARBIYALASHDA NAZARIY – PEDAGOGIKANING ASOSLARI.

Asliddin Xolboev,

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha
dekan o'rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimi elementlari, ta'lim jarayonlari va ijtimoiy hayot o'rtasidagi qonuniyatlar hamda ta'lim jarayonini innovatsion rivojlantirishning tahlili, yuksak ma'naviyat haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, inson, davlat, ma'naviyat, jamiyat, innovatsiya, ob'ekt, sub'ekt, g'oya, qonuniyat, tizim, jarayon, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, substantsiya, metodologiya, printsip, mezon.

Bugungi kunda ta'lim – tarbiya jarayonlarini samarali tashkil qilishda, buyuk ota – bobolarimizning ma'naviy me'roslaridan foydalanish maqsadga muoffiqdir. Ularning yosh avlod tarbiyasi borasidagi jami sa'yi – harakatlari taxsinga sazovordir. Shuning uchun ham yoshlar o'rtasida bunyodkor g'oyalarni targ'ib qilishda ibrat – namuna tizimini yanada jonlantirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda, yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasini shakllantirishni dolzarb deb hisoblaymiz.

Bunday dolzarb muammolar yechimini oila, ta'lim muassasalari va maxalla faoliyati uyg'unligida olib borishni yo'lga qo'yish orqali amalga oshirisa bo'ladi. Buning uchun Xalqimiz ma'naviyatining tarixiy ildizlariga e'tiborni qaratish kerak. Bunda ona zaminda yaratilgan ijod namunalari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Asosan, qadimgi tosh bitiklar, rivoyatlar, afsonalar, hikoyatlar va dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi, xalq amaliy sa'nati, xalq harakatli o'yinlariga borib taqaladi. Misol uchun hammamiz sevib o'qiydigan Spitamen, Alpomish, Go'ro'g'li, To'maris va Shiroq to'g'risidagi rivoyat va dostonlar yosh avlodni vatanparvarlik, mardlik, do'stlik, sadoqat, vafo, vatanning mustaqil, ozod kelajagi parloq bo'lishi uchun fidoiylik ko'rsatishga chorlaydi, da'vat etadi.

Yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashda milliy ma'naviyatimizning tarixiy ildizlari muxim ahamiyat kasb etadi 1) ma'naviyatning

shakllanishi, tarixiy taraqqiyot jarayonida tadrijiy tarzda takomillashuvi, insoniyat hayoti va ijtimoiy munosabatlarida qaror topib borishi va namoyon bo'lishi; 2) ma'naviyatning har bir davr va sharoitda ijtimoiy turmush talab-ehtiyojlarini o'zida ifoda etgan g'oyaviy kuch sifatida yangilanib, ijtimoiy taraqqiyotning kundalik talablariga moslashgan holda namoyon bo'lishini ifodalovchi tushuncha. Kishilik jamiyati tarixida ma'naviyatning zamonaviylashuvi "modern" deyiladi. Shu ma'noda, ma'naviyat insonning o'zligini anglashi bilan boshlangan va doimo sodir bo'ladigan ma'naviy komillik sari intilishidir. Bu hol har bir tarixiy davrda xalq va millatning o'ziga xos ma'naviyatining shakllanishiga olib keladi. Ma'naviyatning tadrijiy taraqqiyotini mutaxassislar tomonidan davrlashtirishning quyidagi umumiy tamoyili qabul qilingan: 1. Qadimgi ma'naviy taraqqiyot. 2. O'rta asrlar davri ma'naviyati. 3. Yangi davr ma'naviyati. 4. Bugungi istiqlol davridagi ma'naviy jarayonlar va o'zgarishlar bu sohadagi zamonaviylikni ifodalaydi. Ma'naviyatning takomil bosqichlari shartli bo'lsa-da, ular orasida o'zaro aloqadorlik va vorisiylik mavjudki, har bir davrda ma'naviyat kishilik jamiyati taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilgan va avloddan avlodga eng ilg'or g'oya va odat, marosimlarni meros qoldirgan "Avesto" va zardushtiylik davri qadimgi odamlar ma'naviyatida animizm, fetishizm, totemizm, magiya kabi qabilaviy dinlarga xos jihatlarni o'zida mujassam etadi. O'sha zamon qadriyatlari xalq og'zaki ijodi, afsona va rivoyatlarda, dehqonchilik va chorvachilik an'alarida, urf-odat va rasm-rusumlarida o'z aksini topgan ma'naviyat shakllari tarzida namoyon bo'ladi. Bu davr ma'naviyati keyinroq milliy va jahon dinlari, ilm-fan, adabiyot va san'at rivoji uchun asos bo'lgan. Bu esa keyinroq yangi davr jahon ma'naviyatining yuksak taraqqiyotini ta'minladi. Shu tariqa ma'naviyat jarayonlari vujudga keldiki, ushbu jihat bugungi milliy ma'naviyatimizning shakllanishida hamda uning takomil bosqichida ajdodlarimiz merosining o'zni beqiyos ekanligini ko'rsatadi. Ma'naviyat bilan bog'liq qonuniyat shundan iboratki, ijtimoiy - tarixiy taraqqiyot natijasida ma'naviyatning shakllari muayyan xalq tomonidan yaratilib, tarixning har bir bosqichida ajdodlar qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarning ijobiy qirralari bilan boyitilib, avloddan avlodga uzatiluvchi

qadriyatlar tizimini tashkil qiladi. Masalan o'rta asrlarda Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy singari buyuk daholar tomonidan yaratilgan ma'naviyat namunalari, shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi allomalarning islomiy qadriyatlar mag'zi bilan yo'g'rilgan ma'naviy meroslari mintaqa xalqlari tafakkurining shakllanishi va rivojlanishida taraqqiyotimiz poydevoriga muhim manba bo'ldi. Xalqimiz ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyot jarayonida bugun biz yashayotgan zaminda asta-sekin taqdirning zalvorli sinovlariga dosh berib, o'z ma'naviy borlig'ini namoyon eta olgan. Uning shakllanish jarayoni insoniyatning eng qadimiy davriga borib taqaladi.

Yoshlarni yuksak ma'naviy ruhda tarbiyalashda biz ota – booblarimiz tomonidan yaratilgan falsafiy, ilmiy va baddiy asarlarga murojaat qilishimiz uchun avvalom bor bo'lajak o'qituvchilarning o'zini unga tayyorlashimiz kerak. Biz yosh avlodga faxr va iftixor bilan shuni tushuntirishimiz kerakki, buyuk allomalarimiz naqaqat musulmon olamiga va madaniyatining rivojlanishiga, balki butun dunyoning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Misol uchun, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek kabi qomusiy olimlarimiz, al-Buxoriy, at-Termiziy, Marg'inoniy, Zamahshariy, Nasafiy, Najmiddin Kubro, Naqshband kabi din peshvolari, ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi shoir, davlat arboblarning baddiy asarlari jahon sivilizatsiyasiga kattta ta'sir ko'rsatgan.

Milodning VIII – IX asrlariga kelib ichki urushlar nisbatan barham topgan, ijtimoiy hayotda nisbatan barqarorlik hukm surayotgan edi. Bu davrda madaniy yuksalish, ilm-fan hamda adabiyotning kerakli darajada taraqqiy etishi uchun imkoniyat yaratib bergan desak xato bo'lmaydi. O'sha davrning buyuk mutafakkirlaridan biri Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850) xalifa Ma'mun tashkil qilgan «Baytul hikma» da katta mavqega ega bo'lganligini yaxshi bilamiz. Muhammad Muso al-Xorazmiy tomonidan olg'a surgan g'oyalarda yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan.

Bugungi kunda yoshlarni yukask ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashda Xorazmiyning quyidagi o'gitlariga alohida to'xtalib o'tishimiz maqsadga muoffiqdir. «O'tmish davrlarda o'tgan olimlar fanning turli tarmoqlarida asarlar yozish bilan o'zlaridan keyingi keladiganlarni nazarda tutardilar. Ulardan biri o'zidan avvalgilardan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi, uni o'zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi». Bnday bebaxo falsafiy qarashlar, butun insoniyat olamining yuksalishida umumiy talab, kamolot mezoni sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi – T. O'zbekiston, 1992. - 43 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekistan taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
3. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi, o'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.:«Iqtisodiyot» 2009y
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent “Ma'naviyat”. 2008 y 173 bet